




JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni – birlikda

2018 yil yanvar-avgust holatiga




- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;
- Davlat statistika qo'mitasi Raisining virtual qabulxonasi orqali;
- Yagona Interaktiv davlat xizmatlari portali orqali;
- Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali;
- To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar;
- Qo'mita rahbariyatining shaxsiy qabulidagi og'zaki murojaatlar;

Davlat statistika qo'mitasiga **2018 yilning yanvar-avgust** holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **1120 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **67** tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, **29** tasi Davlat statistika qo'mitasi Raisining virtual qabulxonasi orqali, **18** tasi Yagona Interaktiv davlat xizmatlari portalidan, **182** tasi Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, **95** tasi og'zaki va **729** tasi to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar.

Murojaatlar: (mazmun-mohiyat bo'yicha)

Ulushi—foizda




- Statistik ko'rsatkichlar;
- KTYaDRga oid ma'lumotlar;
- Ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlari;
- Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan;
- O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan;
- Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish;
- Boshqa masalalar;

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, **521** tasi (*jamiga nisbatan 46,5 foiz*) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan, **116** tasi (*10,3 foizi*) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan, **206** tasi (*18,4 foizi*) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, bsh haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan, **100** tasi (*8,9 foizi*) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan, **99** tasi (*8,8 foizi*) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan, **24** tasi (*2,1 foizi*) Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan, **54** tasi (*5,0 foiz*) boshqa masalalar yuzasidan tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni – birlikda



Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan **792** ta (*o'tgan yilning shu davrida 1188 ta*) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan **72** ta (*122 ta*), Qashqadaryo viloyatidan **28** ta, Xorazm viloyatidan **27** ta, Namangan viloyatidan **32** ta, Farg'ona viloyatidan **24** ta, Samarqand viloyatidan **23** ta, Navoiy viloyatidan **19** ta, Jizzah viloyatidan **22** ta, Andijon viloyatidan **23** ta, Buxoro viloyatidan **18** ta, Sirdaryo viloyatidan **18** ta, Surhondaryo viloyatidan **9** ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan **10** ta va boshqa hududlardan **3** ta murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlarning ko'rib chiqish holati


Soni – birlikda



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan murojaatlarning **891** tasiga chora ko'rildi, **195** tasi tushuntirildi, **34** tasi ko'rib chiqilmoqda, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni – birlikda



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **43,4** foizi (**486 ta**) jismoniy shaxslar va **56,6** foizi (**634 ta**) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o`tamiz:

O`z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog`liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma`lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,



- "Ishonch telefon"lari:
- (71) 230-81-80/ 230-81-82

- Davlat statistika qo`mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:
- (71) 230-81-81

- Pochta manzili - **info@stat.uz**
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi **pm2.gov.uz** orqali murojaat etishingiz mumkin.

Davlat statistika qo`mitasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas`ul:

F.Berdibayev
(0371) 230-81-24